



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**M.I.Kushanova**

*Samarqand davlat universiteti doktoranti*

### **O'SMIR YOSHIDAGI BOLALAR AGRESSIV XULQ- ATVORINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yurtimizda jadallik bilan ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hozirgi zamonaviy sharoitda psixologiya fanidan uzoq yillardan buyon dolzarb bo'lib kelgan an'anaviy muammolar bilan bog'liq tadqiqotlar sifatini oshirishni talab etadi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, ularni sog'lom, barkamol, komil insonlar etib voyaga yetkazish, yot mafkuralar, hurujlardan asrash, ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash ko'nikmalarini shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Kundalik hayotda barchamizni xavotirga va tashvishga solayotgan holatlardan biri bu jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqadigan o'smirlarning ortib borishidir. Deyarli har kuni jamoat joylarda, mahalla-guzarlarda, ommaviy-axborot vositalarida, shuningdek internet tarmog'ida o'smirlarning tengdoshlariga, yon atrofdagilariga nisbatan zo'ravonligini ko'rib guvohi bo'lamiz. Shu boisdan ham bugungi kunda o'smirlarning agressiv xatti-harakatlari muammosi har qachongidan ham dolzarbdir.

O'smirlik davri ontogenezning shunday rivojlanish davriki, bunda kuchli psixofiziologik rivojlanish, hissiy beqarorlik, impulsivlikning ortishi, tashqi muhitga nisbatan ta'sirchanlikning kuchayishi kabilar bilan bog'liq maxsus davrni anglatadi. O'smirlarda namoyon bo'ladigan agressiv xatti-harakatlar hozirgi zamonaviy jamiyatni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. O'smirlik davriga nisbatan ishlatiladigan "krizis" tushunchasi, nafaqat bolalikdan kattalikka



o'tishning og'irligini ta'kidlash uchun, balki o'smirlarning agressiv xulq-atvor xususiyatlarining sababini tushuntirish uchun ham qo'llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri, bu – agressiyadir. Agressiya hamda agressiv xulq-atvor masalalari ilmiy, psixologik, falsafiy adabiyotlarda dolzarb muammo sifatida qaraladi hamda falsafa, psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. XIX asrning boshlariga qadar har qanday faol harakat, u xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin agressiv hisoblangan. Keyinchalik bu so'zning ma'nosi o'zgarib o'z qamrovini toraytirgan. Biroq, shunga qaramay, zamonaviy psixologiyada agressiya va agressiv xulq-atvor muammosi mavjud, chunki bu atamalar turli xil ma'no kasb etadi.

Agressiya so'zining lug'aviy ma'nosi lotin tilidan olingan bo'lib, **“aggressio”** – tajovuz degan ma'noni anglatadi [1]. Psixologik lug'atda agressiya tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: “Agressiya jamiyatda insonning yashash normalari va qoidalariga zid keladigan, jonli va jonsiz obyektlarga ziyon keltiradigan, odamlarga jismoniy zarar yetkazadigan yoki ularda psixologik diskomfort tug'diradigan xulq-atvorning destruktiv ko'rinishidir” [2]. Pol Roberning lug'atida agressiya “kuch ishlatish yo'li bilan individga tajovuz qilish”, Oksford lug'atida “individga nisbatan uyushtirilmagan tajovuz”, S.I.Ojegov lug'atida esa “adovatni keltirib chiqaruvchi ochiqchasiga yoqtirmaslik” sifatida talqin qilinadi [3].

Olimlar hamda tadqiqotchilar agressiya fenomenini o'rganish va tadqiq qilish jarayonida bir qator noaniq va hal qilish uchun murakkab bo'lgan savollarga duch kelishgan. Agressiya tushunchasining mohiyatini ochishga qaratilgan psixologiya fanidagi mavjud konsepsiyalarning xilma-xilligi, shubhasiz, agressiv xatti-harakat muammosining ko'p qirrali va ko'p o'lchovli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Muammoning qiyinchiligi shunda kuzatiladiki, tadqiqotchilar tomonidan bitta yechimi topilgan savol o'z oldiga bir qator yangi savollar majmuini keltirib chiqaradi.

Agressiya muammosini xorij va MDH olimlaridan A.Bandura, L.Berkovis, R.Beron, P.A.Kovalev, D.Konnor, K.S.Lebedinskaya, N.D.Levitov, Yu.B.Mojginskiy, A.Nalchadjyan, A.Paterson, M.M.Rayskaya, A.A.Rean, D.Richardson, L.M.Semenyuk, I.A.Furmanov, O.I.Shlyaxtinalar ilmiy-tadqiqot mavzusi sifatida o'rganishgan.

Agressiv xulqning mohiyatini ochishga qaratilgan izlanishlar A.Bass, V.V.Znakov, N.D.Levitov, T.G.Rumyanseva, V.G.Stepanov, E.Fromm kabilarning ishlarida kuzatish mumkin; uni keltirib chiqaruvchi sabablar orasida irsiy biologik faktorning ajralib chiqishi K.Lorens, Z.Freyd va boshqalar tadqiqotlarida tahlil qilingan. A.Bandura, A.A.Rean, T.G.Rumyanseva, G.Selye kabi olimlar ijtimoiy hodisalar oqibati sifatida o'rgangan, agressiv xulq-atvorni korreksiya va profilaktika qilish metodlari L.V. Vygotskiy, L.S. Semenyuk, D.I. Feldshteyn, T.P. Smirnova, O.P. Rojkov kabilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topadi.

Yurtimiz psixologlaridan G'.B.Shoumarov E.G'.G'oziyev, B.M.Umarov, N.G'.Kamilova, G.Q.To'laganova, N.M.Dalimova kabi olimlarning izlanishlarida bolalik va o'smirlilik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuasiyasi, bolalar va o'smirlar suisidi, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish muammolariga



qaratiladi. N.M.Dalimovanning tadqiqot ishida kompyuter o'yinlari o'smirda tajovuzkor xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida o'rganilgan [4].

O'smir yoshlarda kuzatiladigan agressiyaning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bu davrning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini bilish juda muhim. O'smirlik davri insonning 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu qisqa vaqt davomida o'smir o'z rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tadi: o'z-o'zi bilan, shuningdek yon-atrofidagi yaqinlari bilan sodir bo'ladigan ichki nizolar, tez-tez kuzatiladigan tashqi noroziliklar, yuksalishlar kabilarga to'qnash kelib, u o'zida shaxs bo'lib shakllanish hissini tuyadi. Rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tarilayotganligini sezgan o'smir, endi o'zini kuchli, mustaqil, irodali, kechagi kunga qadar uning uchun ota-onasi xal qilib yurgan muammolarning yechimini endi o'zi topishga qodir deb hisoblay boshlaydi. O'smirning kattalarga o'xshash, katta bo'lish istagi atrofdagilarning qarshiligiga sabab bo'ladi.

Hozirgi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o'smirlar agressivligini o'rganish muammosiga bag'ishlangan asarlar talaygina.

M.L.Melnikovanning fikriga ko'ra, agressivlikning namoyon bo'lishi o'smirlik davrida yaqqol kuzatiladi. Uning bir qancha sabablari mavjud:

- birinchidan, bu yoshga kelib, shaxs xususiyatlari barqaror tarzda shakllanadi, jumladan o'smirdagi agressivlik, bu esa o'smirning tegishli xulq-atvor shaklining namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi;

- ikkinchidan, o'smirlik davriga xos bo'lgan emosional sezgirlik va muvozanatsizlik, impulsiv xatti-harakatlarning, shu jumladan, agressiv harakatlarning tabiatini belgilaydi;

- uchinchidan, aynan mazkur yoshda tashqi determinasiya agressiv xulq modeli ko'rinishida tengqurlari orasida eng muvaffaqiyatli faoliyat shakli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [5].

G'arb psixologiyasida agressivlik qanday ko'rinishda namoyon bo'lmasin boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar deb qaraladi.

Bugungi kunda turli mualliflar tomonidan agressiyaning ko'plab ta'riflari taklif etilgan: birinchidan agressiya deganda kuchli faollik, o'z-o'zini tasdiqlashga intilish, insonning tashqi kuchlarga qarshi bardosh berishga imkon beruvchi ichki kuch tushuniladi [6];

Ikkinchidan agressiya dushmanlik harakatlari va reaksiyalari, hujum, vayron qilish, boshqa shaxsga, obyektga yoki jamiyatga nisbatan zarar yetkazishga urinishda kuch ishlatishni anglatadi [7].

Agressiya boshqalarga tahdid soladigan yoki zarar yetkazadigan har qanday xatti-harakatdir [8].

D.Konnor agressiyani o'zgalarga jismoniy yoki tanasiga zarar yetkazishga urinish atamasi bilan cheklaydi [9].

G'arb tadqiqotlarida agressivlik qisqa muddatli emosional holat va inson xarakteriga xos xususiyat sifatida qaraladi. L.Berkovis agressivlikni turli xil sharoitlarda agressiv reaksiya bildirishning barqaror tayyorgarligi sifatida ko'rsatgan [10]. Uning nuqtai nazaridan agressivlikni agressiv xulq-atvorga moyillik deb hisoblash maqsadga muvofiqdir.



Rossiya tadqiqotchilari agressiyani salbiy huquqiy, axloqiy va hissiy jihatlariga ega bo'lgan muayyan xulq-atvorning natijasi deb hisoblaydilar. Agressivlik bu shaxs xususiyati deb tushuniladi va agressiya holati agressiyaning emosional jihatini anglatadi.

A.V.Nefedovning fikriga ko'ra, agressivlik bu, ziddiyatli vaziyat yuzaga kelganda agressiv munosabatga moyillikni aks ettiruvchi shaxs xususiyatidir. Agressiv harakat – vaziyatga mos munosabat bildirish orqali agressivlikning namoyon bo'lishidir. Agar agressiv harakatlar tez-tez takrorlanib tursa, u holda bunday harakatlar agressiv xulq-atvor ko'rinishiga aylanadi. Agressiya bu – insonning ziddiyat va frustrasiyali vaziyatlardagi xulqidir [11].

A.A.Reanning fikricha, agressiya bu boshqa insonga, insonlar guruhiga yoki hayvonga zarar yetkazish maqsadida qasddan qilingan harakatlar [12].

Inson ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida jamiyatda faoliyat yuritarkan, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul hamda o'rnak bo'ladigan darajada ijobiy bo'lishida uning xulq-atvori muhim ahamiyatga ega.

V.G.Krisko agressivlikni ijtimoiy xulq-atvor shakli sifatida baholaydi, chunki inson agressiv xulq-atvori ijtimoiy munosabatlarning o'zaro ta'sirida shakllanadi. Xulq-atvorni agressiv deb belgilashda ijtimoiy norma tushunchasi hal qiluvchi o'ringa ega. Ijtimoiy normalar muayyan harakatlarni belgilashning nazorat mexanizmini tashkil etadi. Ushbu normalarga amal qilinganda, bunday xulq-atvorning oqibatlari og'irlik darajasidan qat'i nazar, agressiv hisoblanmaydi [13].

Quyidagi ikki jihat kuzatilsa xulq-atvorni agressiv deb atash mumkin: jabrlanuvchi uchun halokatli oqibatlar yuz berganda; xatti-harakat normalari buzilganda.

O'smirlarning agressiv xulq-atvori muammosi bugungi kunda butun dunyoda kuchli ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib bormoqda. Ayni damda o'smirlarning agressiv xulq-atvorini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish ishlarini samarali tashkil etish umumta'lim maktablari faoliyatining eng muhim yo'nalishiga aylandi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, agressiv xulq-atvor ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri ostida shakllanib boradi. Agressiv xatti-harakat, birinchi navbatda, biror insonga qarshi qaratilgan tashqi ifodalangan harakatdir.

O'smirlik agressiyasini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, ularning emosional kechinmalari, hislarini tushunish, ular bilan olib boriladigan psixologik korreksiya imkoniyatlarini belgilash imkonini beradi.

O'smirlar nizoli vaziyatlarda boshqacha usullar bilan hal etish imkoniyatlarini tushuntirib bera olish zarur.

O'smirlarda agressiya holatlari namoyon bo'lganda psixologlar bilan maslahatlashish, ular bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy jarayonda o'zlarining hatti-harakatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, agressiv xulq, avvalo, o'smirlardagi salbiy emosional holatlar ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun kattalar, avvalo, o'zlaridagi salbiy emosional holatlarni boshqara olishlari zarur. Bu bilan o'smirlar insonning o'zini-o'zi boshqara olishi ko'p hollarda ijtimoiy vaziyatni yaxshilashning eng maqbul usuli ekanligiga o'rnak ko'rsatadilar.



Bu borada agressiv xulq ko‘rinishlarining namoyon bo‘lishi holatlarida keskin vaziyatni yumshatish, o‘smirning shaxsiga hurmat bilan qarash talab etiladi. Bunday holatlarda umuman qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan holatlarni ta’kidlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ovozni ko‘tarish, tahdid qilish;
- tazyiq o‘tkazish;
- noroziligini baqiriq bilan bildirish;
- agressiv yuz va tana harakatlaridan foydalanish;
- mazah, kalaka qilish;
- o‘smir shaxsiga yoki uning yaqinlari, do‘stlariga nisbatan salbiy fikr;
- jismoniy kuch ishlatish;
- nizoli vaziyatga begonalarni jalb qilish;
- o‘zining haqligini tinmay ta’kidlash;
- axloqiy mavzularda uzundan-uzoq suhbatlar o‘tkazish;
- jazolash yoki jazolash bilan qo‘rqitish;
- o‘smirni tengdoshlari bilan taqqoslash, uning boshqalarga nisbatan zaif jihatlarini ta’kidlash;
- o‘smirga bosim o‘tkazish;
- o‘z harakatlarini oqlash maqsadida mukofot va’da qilish.

Ayrim hollarda yuqorida keltirilgan holatlar qisqa muddatga o‘smir xulqini o‘zgartirishi mumkin. Lekin keyingi salbiy oqibatlari agressiv xulq ko‘rinishlariga ko‘ra kuchli bo‘lgan salbiy holatlar shakllanishga olib kelishi mumkin.

Demak, agressiyani o‘z vaqtida aniqlash, korreksiya qilish orqali keyinchalik addiktiv xulq-atvor kelib chiqishi va salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar

1. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov). – T.: «Sharq», 2004. – 496 b.
2. Большой психологический словарь/Под редакцией Б.Г. Мещерякова - М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2006. – 815 с.
3. Ениколопов. С.Н. Агрессия в обыденной жизни. – М.: Научная книга, 2014. – 496 с.
4. Далимова Н.М. Компьютер ўйинларига тобе ўсмирларнинг психологик диагностикаси ва коррекцияси хусусиятлари: Психол.фан.ном. ... дис. – Т., 2010.
5. Мельникова М.Л. Когнитивно-поведенческая оценка агрессивного поведения подростков // Психологические проблемы развития и существования человека в современном мире: сб. науч. тр. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т., 2008. – С. 8-18.
6. Брель Е.Ю. К проблеме определения агрессии в отечественных и зарубежных психологических исследованиях / Е.Ю. Брель // Ежегодник Российского психологического общества. – 2015. – №5. – С.221-222.



7. Бэрон Р. Агрессия: учебное пособие / Р. Бэрон. – СПб: Питер, 2010. – 352 с.
8. Басс А. Концепция агрессии / враждебности: учебник / А. Басс, А. Дарки. – Екатеринбург, 2013. – 260 с.
9. Коннор Д. Агрессия и антисоциальное поведение у детей и подростков: учебное пособие / Д. Коннор. – СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2015. – 288 с.
10. Берковиц Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2014. – 512 с.
11. Нефедова А.В. Психология девиантного поведения: курс лекций / А.В. Нефедова. – Владимир: ВлГУ, 2015. – 76 с.
12. Реан А.А. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика: учебное пособие / А.А. Реан, А.Р. Кудашев, А.А. Баранов. – СПб: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2006. – 479 с.
13. Крысько В.Г. Психология и педагогика: учебник для бакалавров / В.Г. Крысько. – Люберцы: Юрайт, 2016. – 471 с.